

UYG'UR VA O'ZBEK MAQOMLARINING MUSHTARAKLIGI

Narzullayeva Durdona Panji qizi

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek Milliy musiqa san'ati instituti.

An'anaviy xonandalik bo'limi 2 bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15696786>

Annotatsiya. Mazkur maqolada uyg'ur va o'zbek xalq maqom san'ati o'rtasidagi mushtarakliklar tarixiy, madaniy va musiqiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ikki xalqning maqom merosida mavjud bo'lgan ohangdorlik, uslub, ijro shakllari va cholg'u asboblariidagi o'xshashliklar ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, maqomlarning rivojlanishiga ta'sir etgan umumiy tarixiy-madaniy omillar, ularning ijtimoiy hayotdagi o'rni va avloddan avlodga o'tish mexanizmlari ham ko'rib chiqiladi. Maqola Sharq musiqiy an'alarining integratsiyalashuvi va madaniy almashinuvi nuqtai nazaridan ham dolzarb ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: uyg'ur O'n ikki maqomi, "Rost", "Navo", "Segoh", "Bayot", falsafiy qarashlar, Sufiylik falsafasi.

ОБЩНОСТЬ УЙГУРСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ МАКОМНОЙ ТРАДИЦИИ

Аннотация. В данной статье рассматриваются исторические, культурные и музыкальные общие черты между макомным искусством уйгурского и узбекского народов. В ходе исследования научно обоснованы сходства в мелодической структуре, стиле исполнения, формах исполнения и используемых музыкальных инструментах.

Также освещаются общие историко-культурные факторы, оказавшие влияние на развитие макомов, их роль в общественной жизни и механизмы передачи из поколения в поколение. Особое внимание уделено философским аспектам и суфийским взглядам, отражённым в содержании макомов. Статья представляет научную ценность с точки зрения интеграции восточных музыкальных традиций и культурного обмена между народами.

Ключевые слова: уйгурский цикл «Двенадцать макомов», «Рост», «Нава», «Сегох», «Байат», философские воззрения, философия суфизма.

COMMONALITIES BETWEEN UYGHUR AND UZBEK MAQOM TRADITIONS

Abstract. This article examines the historical, cultural, and musical commonalities between the maqom traditions of the Uyghur and Uzbek peoples. The study scientifically explores similarities in melodic structures, stylistic performance, execution forms, and musical instruments used in both traditions. It also highlights the shared historical-cultural factors that have influenced the development of maqoms, their role in social life, and mechanisms of transmission from generation to generation. Special attention is given to philosophical themes and Sufi interpretations reflected in maqom content. The article holds academic significance in the context of Eastern musical tradition integration and intercultural exchange.

Keywords: Uyghur "Twelve Maqams" cycle, "Rost", "Navo", "Segoh", "Bayot", philosophical concepts, Sufi philosophy.

Sharq xalqlari musiqiy merosi asrlar davomida o'ziga xoslik, ruhiy boylik, madaniy tafakkur va estetik qarashlarning mujassam ifodasi sifatida shakllangan. Bu musiqiy meroslar orasida maqom san'ati alohida o'rin egallaydi.

Maqom — bu oddiy musiqa emas, u xalqning tarixiy xotirasi, ruhiy olami va ma'naviy dunyosining boy timsolidir. Ayniqsa, Markaziy Osiyo xalqlarida maqom san'ati uzoq yillik an'anaviy tajribalarga, ma'naviy izlanishlarga asoslanadi va shu hududda yashovchi xalqlar — xususan, o'zbeklar va uyg'urlar uchun mushtarak musiqiy merosning eng muhim ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. O'zbek va uyg'ur xalqlari o'rtasidagi madaniy aloqalar qadimdan shakllanib kelgan bo'lib, bu ikki xalqning turmush tarzi, urf-odatlar, til o'xshashligi, diniy va falsafiy qarashlari musiqiy ifodaning umumiy qirralarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Aynan maqom san'atidagi o'xshashliklar, ohanglar va maqom tuzilmalari ushbu tarixiy-madaniy mushtaraklikni ilmiy asosda o'rganish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Uyg'ur va o'zbek maqomlari shakllanishida umumiy ijtimoiy-siyosiy va madaniy omillar muhim rol o'ynagan. Har ikki xalq o'zining musiqiy madaniyatini rivojlantirishda qadimiy shaharlardagi – Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Qashg'ar, Yarkand kabi madaniy markazlar ta'sirida bo'lgan. Aynan shu markazlar orqali maqom ijrochiligi, musiqiy nazariya, ashula matnlari va cholg'ular an'anasi avloddan avlodga o'tgan. Uyg'ur xalqining “On ikki maqomi” va o'zbek xalqining “Shashmaqom” tizimi bir-biriga g'oyat yaqin tuzilmaviy va mazmuniy xususiyatlarga ega. Har ikkisi Sharq musiqiy nazariyasi – maqomot ilmi asosida shakllanib, avvalgi asrlarda bir hududda yashagan xalqlarning umumiy musiqiy merosi sifatida rivoj topgan. Masalan, “Rost”, “Navo”, “Segoh”, “Chorgoh”, “Bayot” kabi maqom nomlari va ularning ohang tuzilmalari uyg'ur va o'zbek maqom tizimida birday mavjud. Bu esa ushbu ikki xalqning musiqiy fikrlash madaniyati o'rtasidagi yaqinlikni isbotlab beradi.

Maqom san'atida faqat musiqiy tuzilma emas, balki matnlar, ya'ni kuy bilan aytiladigan she'riy asarlar ham muhim o'rin tutadi. O'zbek va uyg'ur maqomlaridagi ashula matnlari, garchi til jihatidan farq qilsa-da, ruhiy-mavzuviy yo'nalishlari, estetik qarashlari bilan bir-biriga juda yaqin. Har ikki xalq maqom san'atida sevgi, vafodorlik, ilohiy ishq, hayotiy tafakkur, insoniy barkamollik kabi mavzular ustuvor o'rin egallaydi. Bu esa shuni ko'rsatadiki, maqom faqat musiqiy shakl emas, balki xalq tafakkuri va estetik dunyoqarashining teran in'ikosi sifatida qaraladi. Ayniqsa, Sufiylik falsafasi ta'sirida shakllangan maqom matnlari turk xalqlarining umumiy ruhiy-axloqiy merosini ko'rsatib beradi.

Uyg'ur va o'zbek maqomlaridagi mushtarakliklar faqat tarixiy ildizlar bilan emas, balki ijro uslublarida ham ko'zga tashlanadi. Har ikki xalqda maqom ijrosi nafislik, mahorat, chuqur musiqiy tafakkur va ijodiy yondashuv asosida amalga oshiriladi.

Maqomlar odatda guruhli ijroda – sozandalar, xonandalar va cholg'u asboblari hamohangligida kuylanadi. Dutor, tanbur, gijjak, nay, doira kabi cholg'u asboblarining maqom ijrosida tutgan o'rni uyg'ur va o'zbek maqomlarida deyarli bir xil. Bunday musiqiy vositalarning o'xshashligi esa xalqning umumiy musiqiy an'alariga asoslanadi.

So'nggi yillarda uyg'ur va o'zbek maqomlari YUNESKO tomonidan nomoddiy madaniy meros sifatida e'tirof etilib, xalqaro miqyosda e'tibor qozonmoqda. Jumladan, 2003-yilda o'zbek Shashmaqomi YUNESKOning “Insoniyat og'zaki va nomoddiy merosi durdonalari” ro'yxatiga kiritilgan bo'lsa, 2005-yilda uyg'ur O'n ikki maqomi ham shu ro'yxatdan joy olgan. Bu holat ikki xalqning musiqiy merosini global kontekstdagi o'rni va ahamiyatini yanada oshirib, ularni xalqaro miqyosda birlashtiruvchi madaniy ko'priq sifatida namoyon etadi.

Maqom san'atining mushtarakligi o'zbek va uyg'ur xalqlari o'rtasidagi tarixiy hamkorlikni, o'zaro madaniy almashinuvni, ruhiy qarindoshlikni yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu musiqiy merosni chuqur o'rganish, uni ilmiy asosda tadqiq etish va yosh avlodga yetkazish masalasi bugungi kunda dolzarb bo'lib qolmoqda. Maqom — bu millatning ruhiy qomusi, u xalq qalbidan, tarixidan va tafakkuridan oziqlanadi. Shuning uchun maqom san'atidagi o'xshashliklar, farqlar, ularning tarixiy ildizlari va zamonaviy talqinlarini o'rganish nafaqat musiqashunoslik, balki umumiy madaniyatshunoslik, tarix va falsafa nuqtai nazaridan ham katta ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston musiqashunosligida maqom san'ati bo'yicha eng salmoqli tadqiqotlar orasida Yunus Rajabiy asarlari alohida o'rin tutadi. Uning “Shashmaqom” nomli kitobi maqom ijrochiligi, tuzilmasi va musiqiy shakllari haqida chuqur ma'lumot beradi. U o'z izlanishlarida o'zbek Shashmaqomi asoslarini qadimiy Musiqiy Maqomot ilmi bilan bog'laydi va maqomning nafaqat musiqa, balki falsafiy va madaniy tizim sifatidagi jihatlarini tahlil qiladi. Rajabiy asarlarida “Rost”, “Navo”, “Segoh”, “Bayot”, “Chorgoh” kabi maqomlarning tuzilmalari, ohang xarakteri, ijro uslubi haqida bayon qilinar ekan, ushbu maqom nomlarining uyg'ur “On ikki maqom” tizimidagi mavjudligi ushbu ikki xalq o'rtasidagi musiqiy mushtaraklikka ishora qiladi.

Musiqa nazariyachisi Rauf Yusupovning “O'zbek xalq maqomlari” asari ham ushbu yo'nalishda muhim manbalardan biri bo'lib, unda maqomning modal (lad) tizimi, ritmik tuzilmalari va tarixiy shakllanish bosqichlari ilmiy asosda bayon etilgan. Yusupov maqom tizimi Sharqda qadimdan mavjud bo'lgan musiqiy nazariya – “Dastgoh” tizimi bilan bog'liq holda o'rganilganini ko'rsatadi. Bu tizim, ayniqsa, Eronda “dastgoh”, Ozarbayjonda “mug'om”, Arab dunyosida “maqom”, Turkmanistonda “mukam”, uyg'urlarda esa “On ikki maqom” nomi bilan tanilgan. Bu atamalar farqli bo'lsa-da, ularning ichki mohiyati va musiqiy-funksional tuzilmasi ko'p jihatdan bir-biriga yaqin. Bu holat maqomlarning yagona madaniy ildizga tayanishini isbotlaydi.

Uyg'ur maqom san'ati bo'yicha Xitoyda va xalqaro doirada ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, uyg'ur musiqashunosi Toxtiy Hudoyorovning “On ikki maqom” nomli ilmiy monografiyasi uyg'ur maqom tizimining kelib chiqishi, tarixi, maqomlarning ichki tuzilmasi, har bir maqomdagi bo'limlar (bashi, dastan, mashrap, muqam, etc.) haqida batafsil ma'lumot beradi.

Hudoyorov maqomlarning xalq hayotidagi rolini chuqur tahlil qilib, uni uyg'ur xalqining tarixiy xotirasi sifatida talqin qiladi. U o'z izlanishlarida o'zbek Shashmaqomi bilan uyg'ur O'n ikki maqomi o'rtasida mavjud bo'lgan umumiyliklarga ham to'xtaladi. Unga ko'ra, ikki tizimda “Chorgoh”, “Segoh”, “Navo”, “Bayot” kabi maqom nomlari nafaqat bir xil nomlangan, balki ularning ohang strukturasi ham o'zaro chambarchas bog'langan.

Shuningdek, olim Ruxangul Abdurahmonning ingliz tilida yozilgan “The Twelve Muqams of the Uyghurs” (2010) nomli monografiyasida uyg'ur maqomlari xalq og'zaki ijodi, diniy-falsafiy tasavvurlar va qadimiy turkiy musiqiy meros bilan bevosita bog'langanligi haqida fikr yuritiladi. Ruxangul On ikki maqomning har bir bo'limi – “rak”, “chebbiyat”, “qoshqarchilik” kabi qismlarining ma'naviy va madaniy zamirini yoritgan. Ayniqsa, maqomlarning Sufiylik falsafasi bilan aloqadorligi, ularning ijrosidagi ruhiy tafakkur va hissiyot ifodasi haqida yozgan mulohazalari o'zbek maqomlariga ham daxldor bo'lishi mumkinligini

ko'rsatadi. Shashmaqomdagi ko'plab ashulalarda ham Alloh ishq, ruhiy poklanish, ichki uyg'onish mavzulari yetakchi o'rinda turadi.

Maqom san'atining adabiy jihati ham ko'plab adabiyotlarda tadqiq etilgan. Jumladan, o'zbek maqomlaridagi ashula matnlari ko'pincha Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Fuzuliy kabi klassik shoirlarning g'azallari asosida ijro etiladi. Shu bilan birga, uyg'ur maqomlarida ham Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnaki, Mashrab kabi mutafakkirlarning asarlari asosida ijro qilinadigan kuylarga uchrash mumkin. Bu holat o'zbek va uyg'ur xalqlari madaniyatining tarixan bir-biriga yaqin bo'lganligini yana bir bor isbotlaydi. Musiqiy ifoda vositasi orqali bir xil ruhiy-estetik mazmunning yetkazilishi bu xalqlarning bir xil madaniy va falsafiy zaminga ega ekanidan darak beradi.

Maqomlar ijtimoiy hayotda tutgan o'rni va ularning avloddan avlodga o'tish jarayoni haqida Ko'zim Komilovning "O'zbek musiqa folklori" asarida keng fikr yuritilgan. U o'z tadqiqotida Shashmaqomning xalq orasida keng tarqalgan variantlarini o'rganadi va uning og'zaki an'ana orqali uzatilishini asoslaydi. Uyg'ur maqomlari ham xuddi shunday og'zaki yo'l bilan uzatilgan. Xususan, uyg'ur xalqida maqom ijrochilari – "Muqomchilar" o'z kasbini shogirdlarga berkitilgan tarzda, marosimlarda, diniy yig'inlarda o'rgatgan. Bu usul o'zbek maqom an'alariga ham xos bo'lib, bu jihatlarda ham mushtaraklik yaqqol ko'zga tashlanadi.

Adabiy manbalar orasida Abdunabi Ismatullayevning maqolalari va intervyulari ham o'zbek maqomlarining uyg'ur maqomlari bilan tarixiy bog'liqligini ko'rsatadi. U o'z izlanishlarida maqom ijrochiligi maktablari, ijrodagi regionlararo tafovutlar, ohanglar tizimi va maqomlar orasidagi melodik ko'chishlar haqida ilmiy izohlar bergan. Bu ko'chishlar faqat musiqiy o'zgarish emas, balki xalqaro madaniy ta'sirlar, ijtimoiy migratsiyalar natijasida yuzaga kelganligini ta'kidlaydi.

Yuqorida keltirilgan barcha manbalar uyg'ur va o'zbek maqomlarining musiqiy, adabiy, estetik va tarixiy mushtarakligini ko'rsatishga xizmat qiladi. Ular maqom san'atining faqat musiqiy shakl emas, balki xalq tafakkurining, ruhiyatining, falsafasining, hayot tarzining o'ziga xos ifodasi ekanligini ilmiy asosda isbotlaydi. Ushbu adabiyotlar asosida shuni aytish mumkinki, maqom san'ati — bu ikki xalqni birlashtiruvchi ruhiy-madaniy ko'prikdir. U orqali biz faqat musiqa emas, balki tarix, madaniyat, falsafa, adabiyot va estetik dunyoqarashning umumiy qatlamlarini o'rganish imkoniga ega bo'lamiz.

Maqom san'ati o'zbek va uyg'ur xalqlari musiqiy merosining eng nozik, boy va mukammal shakllaridan biri bo'lib, ularning tarixiy-madaniy aloqalari, estetik qarashlari va ruhiy dunyoqarashi o'rtasidagi mushtaraklikni yaqqol aks ettiradi. Shashmaqom va On ikki maqom tizimlari ilk qarashda turli hududlarda shakllangandek tuyulsa-da, ularning lad-melodik qurilishi, asosiy maqom nomlari, ijro an'analari va ashula mazmunlaridagi o'xshashliklar ularning yagona musiqiy-falsafiy

Maqom san'ati ikki xalq hayotida nafaqat musiqa, balki ma'naviy dunyo, adabiy estetik qarashlar, madaniy ifoda vositasi sifatida ham chuqur ildiz otgan. Bu san'at avloddan avlodga og'zaki ijod orqali o'tgan, xalq hayoti bilan chambarchas bog'liq holda yashab kelgan. Shu sababli maqomlarni o'rganish orqali nafaqat musiqiy tajriba, balki xalq ruhiyati, tarixiy xotirasi va madaniy o'zligini anglash ham mumkin bo'ladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, o'zbek va uyg'ur maqomlarining mushtarakligi ularning umumiy turkiy ildizlari, Sharq musiqiy tafakkuriga mansubligi hamda ko'p asrlik madaniy aloqalar mahsuli sifatida qaralishi lozim. Ushbu mushtaraklik ikki xalq musiqiy merosini qiyosiy tadqiq etish, uni saqlash va targ'ib qilishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Kelajakda bu borada yanada chuqurroq tadqiqotlar olib borilishi, zamonaviy texnologiyalar vositasida maqomlarning raqamlashtirilishi, xalqaro ilmiy hamkorliklar orqali maqomlarni global miqyosda o'rganish – bu boy madaniy merosni asrash va yangi avlodga yetkazishning dolzarb vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rajabiy, Y. (1978). *Shashmaqom*. Toshkent: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
2. Yusupov, R. (1983). *O'zbek xalq maqomlari*. Toshkent: Fan.
3. Hudoyorov, T. (2004). *On ikki maqom*. Urumchi: Shinjon Xalq nashriyoti.
4. Ruxangul Abdurahmon. (2010). *The Twelve Muqams of the Uyghurs*. Urumchi: Xinjiang Arts Press.
5. Komilov, K. (1996). *O'zbek musiqa folklori*. Toshkent: O'zbekiston.
6. Ismatullayev, A. (2020). "Maqom san'ati va milliy musiqiy tafakkur." // *Musiqa va madaniyat* jurnali, 2-son.
7. Saidov, S. (2015). *Sharq maqom san'ati: tarix, nazariya va amaliyot*. Toshkent: San'at.